

Buxoro viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 776 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 128 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 648 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 6 678,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 118,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 728,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 139,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 949,9 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 369,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 151,8 %) tashkil etdi.

Shaharlar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 199 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 867,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 369,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 57,8 % ga o'sdi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 69,2 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega Olot (73,4 m.), Jondor (38,2 m.), Qorako'l (13,5 m.), Romitan (13,1 m.), Shofirkon (10,9 m.) tumanlarida va Kogon shahar (8,4 m.) kuzatildi.

Shaharlar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 540 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 493,0 mlrd. so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8001)	Ijrochi: Z.Saidova Tel: +998(65) 505-80-00 (8040) e-pochta: info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 200100, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
--	--	--	--